“Konstitutsiya va qonunlarga hurmat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat
har bir fuqaroning hayot va faoliyat tarziga aylanmog‘i kerak”.

Shavkat MIRZIYOYEV

Shonli 30 yil:
adl qadamlar, ustuvor vazifalar, yangi adliyaning yangi tashabbuslari



1993-yil 17-iyun	Adliya vazirligining iqtisodiy islohot bo‘yicha qonunchilik va me’yoriy hujjatlar loyihalarini tayyorlash va huquqiy ekspertiza qilish boshqarmasi tarkibida Idoraviy me'yoriy hujjatlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish bo‘limi ochildi.
1994-yil 24-yanvar	Huquqiy siyosatni muvofiqlashtirish hamda Huquqiy targ‘ibot bo‘limlari negizida Huquqiy siyosatni va xalqaro huquqiy aloqalarni muvofiqlashtirish boshqarmasi, Iqtisodiy islohot bo‘yicha qonunchilik va normativ hujjatlar loyihalarini tayyorlash va huquqiy ekspertiza qilish boshqarmasi ish boshladi.
1994-yil 22-mart	O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko‘rsatayotgan xo‘jalik birlashmalari (korporatsiyalar, konsernlar, uyushmalar, ittifoqlar, aksionerlik jamiyatlari va boshqalar), mulkchilik shaklidan qat'i nazar, Adliya vazirligida va hududiy adliya organlarida davlat ro‘yxatidan o‘tishlari belgilab qo‘yildi.
1994-yil 13-may	Xalqaro-huquqiy boshqarma tuzildi.
1995-yil 27-aprel	Tadbirkorlar va xususiy mulk egalari huquqlariga rioya etish bo‘yicha qonunchilikning bajarilishini nazorat qilish bo‘limi tashkil etildi.
1995-yil 23-avgust	“Huquq va burch” jurnali hamda “Inson va qonun” huquqiy gazetasi Davlat matbuot qo‘mitasi tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazildi.
1997-yil 10-iyul	Adliya vazirligi tizimida fuqarolarning qonunchilik buzilishi yuzasidan ariza va shikoyatlarini ko‘rib chiqish boshqarmasi tashkil etildi.
1997-yil 29-avgust	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi va mazkur qarorda Adliya vazirligiga aholining, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining, mansabdor shaxslar va mutaxassislarning huquqiy madaniyatini oshirish, advokatlar byurolari, hay’atlari va firmalarini, shuningdek, yuristlarning maslahat berish va ma’rifat ishlari bilan shug‘ullanuvchi turli jamoat birlashmalarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ishlar muvofiqlashtirilishini ta’minlash vazifasi yuklatildi.
1997-yil 9-oktyabr	Idoraviy me’yoriy hujjatlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish boshqarmasi tashkil etildi.
1998-yil 24-fevral	Toshkent yuridik texnikumi negizida Toshkent yuridik kolleji tashkil etildi hamda keyinchalik 2003-yil 27-avgustda Adliya vazirligi tizimiga kiritildi.
1998-yil 24-aprel	Adliya vazirligi markaziy apparatida Xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan shartnoma majburiyatlari bajarilishini nazorat qilish boshqarmasi tashkil etildi.
1999-yil 12-fevral	Tashkiliy-nazorat va tahlil boshqarmasi faoliyat boshladi.
2000-yil 17-fevral	Kichik va o‘rta tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish boshqarmasi tashkil etildi.
2000-yil 5-avgust	Qonun hujjatlarini turkumlash va huquqiy axborot boshqarmasi hamda Huquqiy axborot bilan ta’minlash markazi tuzildi.
2000-yil 1-sentyabr	O‘zbekiston Respublikasi barcha me'yoriy-huquqiy hujjatlarining davlat hisobi joriy etildi.

2001-yil 22-sentyabr	Adliya vazirligi huzuridagi Sudlar faoliyatini tashkiliy, moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta'minlash departamenti O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta'minlash departamenti sifatida qayta tashkil etildi.
2003-yil 2-may	Xorijiy investitsiyalar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni huquqiy himoya qilish boshqarmasi tuzildi.
2003-yil 27-avgust	Adliya vazirligining yangi nizomi tasdiqlandi, shuningdek, Inson huquqlarini himoya qilish boshqarmasi tashkil etildi.
2003-yil 29-sentyabr	Iqtisodiy islohot bo'yicha qonunchilik va normativ hujjatlar loyihalarini tayyorlash va huquqiy ekspertiza qilish boshqarmasi Iqtisodiy qonunchilik boshqarmasiga, Huquqiy siyosatni muvofiqlashtirish va o'quv muassasalari boshqarmasi esa Huquqiy targ'ibot va huquqiy ta'lim boshqarmasiga aylantirildi.
2004-yil 24-fevral	Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan inson huquqlariga rioya etilishining holatini o'rganish bo'yicha idoralararo ishchi guruhi tashkil etildi va Adliya vaziri mazkur ishchi guruhining rahbari etib belgilandi.
2005-yil 15-dekabr	Adliya vazirligi huzurida Normativ-huquqiy hujjatlarning amalga oshirilishi ustidan monitoring qilish markazi tashkil etildi.
2010-yil 1-yanvar	Barcha foydalanuvchilar Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (Lex.uz)dan tekin foydalanishni boshladi.
2011-yil 17-iyun	Adliya vazirligi huzuridagi Normativ-huquqiy hujjatlarning amalga oshirilishi ustidan monitoring qilish markazi Qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazorat qilish bosh boshqarmasiga aylantirildi va uning hududiy bo'limlari tashkil etildi. Keyinchalik bosh boshqarma va uning hududiy bo'limlari tugatildi.
2011-yil 23-avgust	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining yangi nizomi tasdiqlandi.
2015-yil 15-may	Adliya vazirligiga "bir darcha" markazlari faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish va uslubiy ko'mak ko'rsatish vazifalari yuklatildi.

Shuningdek 2011-yil 23-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori adliya sohasidagi faoliyatni yangi bosqichga olib chiqdi. Adliya vazirligining jamiyat va davlat boshqaruvini takomillashtirishdagi roli yanada oshirildi.

Ilk marotaba Adliya vazirligining Vazirlar Mahkamasiga, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan faoliyatning alohida masalalari bo'yicha – bevosita O'zbekiston Prezidentiga bo'ysunishi belgilandi. Adliya vazirligi tizimida qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazorat qilish bosh boshqarmasi va uning hududiy bo'limlari tashkil etildi.

Ushbu davrda (1991–2016-yillar) Adliya vazirligi o'ziga xos va murakkab shakllanish bosqichini o'tadi, davlat ijroiya organidan huquqni muhofaza qiluvchi organga aylandi.



ADLIYANING YANGI DAVRI

2017-yilda davlat tashkilotlarining yangi davri boshlandi. Shuningdek, adliya organlari ham ish uslublarini qayta ko‘rib chiqdi.

Bu davrda adliya organlari va muassasalari faoliyatini takomillashtirish yuzasidan 20 ga yaqin yangi qonun hujjatlari qabul qilindi.

2017-yilga qadar adliya organlarida 200 ga yaqin funksiya mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2017 – 2021-yillarda ularga qo‘shimcha 160 ta funksiya va vazifalar yuklatildi. Adliya organlari quyidagi yangi vazifalarni bajarishni o‘z bo‘yniga oldi:

- respublika hududlarida tadbirkorlikning rivojlanganlik darajasiga baho berish;
- barcha sohalarda qonunchilikni tizimlashtirish va kodifikatsiyalash ishlarini samarali yo‘lga qo‘yish, qabul qilinganiga ko‘p vaqt bo‘lgan qonun hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish va ularni bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlarga uyg‘unlashtirish;
- tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yishning avtomatlashtirilgan tizimini yuritish;
- ma’muriy islohotlarning samaradorligi va natijadorligini monitoring qilish;
- qonun hujjatlari va ularning loyihalarining tartibga solish ta’sirini baholash sohasidagi faoliyatni muvofiqlashtirib borish;
- xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekiston Respublikasi o‘rnining yaxshilanishiga to‘sqinlik qilayotgan huquqiy omillar yuzasidan fundamental huquqiy tadqiqotlar o‘tkazilishini ta’minlash.

SHAFFOFLIK

Mamlakatda adliya instituti shakllanish jarayoni yuqorida aytilganidek, 1991-yildan 2016-yilgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Tan olish kerak, adliya sohasi bu davrda to‘la shakllanib ulgurgan bo‘lsa-da, tizimning ishlashida nuqsonlar yetarlicha edi. Ushbu soha ham boshqa sohalar kabi deyarli yopiq uslubda ishlab, xalq bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot qilish yo‘lidan bormas edi.

Bu davrga kelib, davlat xalqni rozi qilish shiorini o‘ziga siyosiy ustuvor vazifa etib belgiladi. Adliya vazirligi tizimida ham jonlanish ro‘y berdi. Shu ma’noda, Adliya vazirligini tashkil etuvchi tashkilotlarning ham tom ma’noda ishlab ketishi uchun raqobat va ochiqlik muhitini yaratish kerak edi.

Vazirlik xalq bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotga kirishish yo‘lini tanladi. Vazirlik muassasalari yangidan isloh etildi, zamonaviylashtirildi, natijada xalq bilan muloqotda qonun ustuvorligi ta’minlandi. Sohadagi shaffoflik muhiti korrupsiyaga barham berdi.

Vazirlik qonunlar yaratish jarayonida nafaqat uning xalqchilligi, balki tom ma’noda ustuvorligi amalda ta’minlanishini bosh maqsad qildi. Ma’lumki, qonun ustuvorligiga erishilmay turib, na iqtisod, na ijtimoiy yo‘nalishdagi ishlarda muvaffaqiyatga erishib bo‘ladi. Shunday ekan, vazirlik avvalo o‘zining sohasida qonunlar ishlab ketishi uchun ish uslubini katarsis keltirib chiqaradigan darajaga o‘zgartirdi. Murojaatchilarning vazirlikka nisbatan ishonchi ortdi. Shuningdek, hukumatning boshqa organlari ham shaffof darajada ishlashi uchun qonun ijodkorligi muhim edi.

Birgina 2020-yilning o‘zida vazirlik tomonidan 142 qonun hujjati loyihasi ishlab chiqilib, hukumatga kiritilgan.

O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy islohotlar konsepsiyasi qabul qilinib, unda davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirishning asosiy 6 yo‘nalishi belgilangan edi.

Shu yo‘nalishda davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, jumladan, davlat organlarining



ochiqligi va shaffofligini ta’minlashga qaratilgan 3 ta muhim qonun qabul qilindi.

Bular “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”, “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”, “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonunlardir.

Davlat organlari, tashkilotlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash, ular faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimini joriy qilish yo‘nalishida bir qator ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, ochiq ma’lumotlar shaklida joylashtirilishi kerak bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlar ro‘yxati tasdiqlandi.

Davlat xizmatchilarining professional korpusini yaratish maqsadida davlat xizmatini tashkil etishga mas’ul bo‘lgan yagona davlat organi – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tashkil etildi.

Bundan tashqari, xodimlarni davlat xizmatiga qabul qilishda sifat tarkibini tahlil qilish, shuningdek, ochiq va shaffof tanlovlarni tashkil etish ishlari olib borilmoqda.

Elektron hukumat tizimini takomillashtirish, boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish va ushbu sohada uzoq muddatga mo‘ljallangan keng ko‘lamli chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshirish maqsadida “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi qabul qilindi.

Davlat-hokimiyat vakolatlari berilgan va samarasiz deb topilgan 110 ta idoralararo kollegial organning faoliyati tugatildi. Davlatning iqtisodiyotdagi ishtiroki darajasini qisqartirish maqsadida davlat funksiyalarini xususiy sektor subyektlariga o‘tkazish bo‘yicha huquqiy mexanizm yaratildi. Unga ko‘ra, 2021-yildan boshlab 6 ta davlat funksiyasi xususiy sektorga o‘tkazildi hamda bu yo‘nalishda harakatlar davom etmoqda.

Shuningdek, “Ochiq byudjet” portali ishga tushirildi. Portalda hozir 12 mingdan ortiq ma’lumot ochiqlangan (Adliya vazirligi tomonidan “ochiq va hisobdor hukumat” loyihasi ishlab chiqilib, hukumatga kiritildi).

Huquqiy xizmat ko‘rsatishda elektron raqamli imzolardan foydalanish odatiy holga aylanib bormoqda.

Shuningdek, 2021–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida ochiq ma’lumotlar sohasini rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi.

Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ishlab chiqish, kelishish va ro‘yxatdan o‘tkazishning yagona elektron tizimi (“e-qaror”) joriy qilindi. Ushbu tizim orqali bugungi kunga qadar mahalliy davlat hokimiyati organlarining 5000 ga yaqin qarori va farmoyishi belgilangan tartibda kelishildi, huquqiy ekspertizadan o‘tkazildi va qabul qilindi.

Har bir davlat organi, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar huzurida fuqarolik jamiyati institutlari vakillaridan tashkil topgan jamoatchilik kengashi tashkil etildi.



VAZIRLIK FAOLIYATINING MUHIM YO‘NALISHI

Qonun ijodkorligi, uni ixchamlashtirish, ortiqcha yukni kamaytirish, biznesga nisbatan byurokratiya va korrupsiyaga yetaklovchi normalarni qisqartirish vazirlik faoliyatining ustuvor yo‘nalishidan biri hisoblanadi.

Vazirlik tomonidan keyingi 5 yillikda 202 ta qonun hujjati loyihasi ishlab chiqildi. Vazirlik qonun ijodkorligi bilan birga uning ishlab ketishini ishni tashkil etish uslubi natijalaridan biri deb biladi.

Adliya vazirligi “tartibga solish gilotinasi” usulini qo‘llagan holda 2020-yilda 500 ga yaqin, 2021-yilda 400 ga yaqin farmon va qaror bekor qilindi. Shuningdek, 2000 ga yaqin hukumat qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb topildi. Bu esa amaldagi qonunchilik bazasini deyarli 10 foizga ixchamlashtirishga imkon berdi.

Shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarining 4343 ta umummajburiy qarori “tartibga solish gilotinasi” asosida bir vaqtda bekor qilindi.

Adliya vazirligi birinchilardan bo‘lib elektron tizim ish uslubiga o‘tdi. Bu tizimda bir yilda 100 tonna qog‘oz iqtisod qilinishiga olib keldi.

73 turdagi ma’lumot va “spravka”lar bekor qilindi. Natijada yiliga o‘rtacha 5 milliondan ortiq fuqaroning ovora bo‘lishiga barham berildi. Ularning 60 milliard so‘mdan ortiq mablag‘i o‘zida qoldi.

Adliya vazirligi 2021-yilda korrupsiyaga qarshi, shuningdek, ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash bo‘yicha 3 ta muhim hujjatni ishlab chiqishda hissa qo‘shdi.

Vazirlik hokimliklar aralashuvisiz noqishloq va qishloq xo‘jaligi yerlarini ajratishning barcha uchun bir xil va shaffof tartibini joriy etish uchun qonunchilik paketini ishlab chiqishda bosh ijrochi bo‘ldi.

Ma’lumki, Prezident hujjatlarining ijrosini nazorat qilish adliya idoralariga yuklatilgan. Adliya vazirligi 2021-yilda 2800 ta topshiriq ijrosi kechiktirilishining oldini oldi. Hozir respublika miqyosida 3 mingdan ortiq Prezident hujjatidagi 60 mingdan ortiq topshiriqning ish jarayoni ketmoqda. Shulardan 82,3 foizi bajarilgan, 17,7 foizi esa bajarilishi kutilmoqda.

XALQARO HUQUQ

Adliya vazirligi global dunyoda kechayotgan tendensiyalarni muntazam kuzatib turadi. Mamlakat ichki qonunlari bilan tashqi dunyo qonun-qoidalari o‘rtasidagi farqlarni tahlil qiladi, muvofiqlashtiradi. Shu yo‘nalishda vazirlik mamlakatning bir qator xalqaro huquqiy tashkilotlarga a’zoligini ta’minlamoqda.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi 2020-yil 4-martda Xalqaro xususiy huquq bo‘yicha Gaaga konferensiyasi (XXHGK)ga to‘laqonli rasmiy a’zo bo‘ldi. Xalqaro xususiy huquq bo‘yicha Gaaga konferensiyasiga 84 davlat va Yevropa ittifoqi rasmiy a’zo hisoblanadi. Mamlakatlar turli xalqaro-huquqiy hujjatlar va xalqaro tashkilotlar faoliyati orqali hamkorlik qilishadi. Huquqiy muvofiqlashtiruv harakatlarini amalga oshirishadi. XXHGK aynan shunday yirik tashkilotlardan biri hisoblanadi.

XXHGK doirasida 40 ga yaqin konvensiya imzolangan, ular 3 asosiy yo‘nalishga bo‘linadi:

- ☑ bolalarni xalqaro himoya qilish, oilaviy va mulkiy munosabatlar;
- ☑ xalqaro huquqiy hamkorlik va nizolarni bartaraf etish;
- ☑ xalqaro tijorat va moliyaviy huquq.
- ☑ O‘zbekiston uchun xalqaro xususiy huquq me'yorlarini birxillashtirish muhim masalalardan biridir. Bu masalani yechish Adliya vazirligi faoliyatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi.

VAZIRLIKNING YANGI MAQOMLARI

2017-yilda vazirlik ish uslubini tubdan o‘zgartirdi. Shu vaqtdan boshlab vazirlik bir qancha yangi organlar bilan boyitildi. Bundan maqsad adliya organlarining ishini optimallashtirish va zamonaviylashtirish edi. Natijada adliya organlari bilan murojaatchilar o‘rtasidagi shaffof munosabat qonunning ishlab ketishiga turtki bo‘ldi. Hamda adliya organlarida korrupsion holatni keltirib chiqaradigan ish uslubi oradan ko‘tarildi.

CHUNONCHI,

2017-yil 19-yanvar	O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yuridik xizmatlar faoliyatini muvofiqlashtirish va metodik ta’minlash, ularning xodimlarini attestatsiyadan o‘tkazish va malakasini oshirish bo‘yicha maxsus vakolatli organ etib belgilandi hamda Yuridik xizmatlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va metodik ta’minlash boshqarmasi hamda uning hududiy sho‘balari tashkil etildi.
2017-yil 25-sentyabr	Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (Lex.uz) rasmiy manba maqomiga ega bo‘ldi.
2017-yil 12-dekabr	Adliya vazirligi huzurida Davlat xizmatlari agentligi faoliyat boshladi.
2018-yil 13-aprel	Ilk bor tuman (shahar)larda adliya bo‘limlari hamda respublikaning har bir hududida yuridik texnikumlar tashkil etildi.

Bundan tashqari, 2018-yildan boshlab:

O‘zbekiston Respublikasi adliya vaziri davlat organlari va tashkilotlarining norma ijodkorligi faoliyati va huquqni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida har yili O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga axborot taqdim etishi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi adliya vaziri, hududiy adliya boshqarmalari boshliqlari har yarim yil yakuni bo‘yicha tegishlicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari kengashlariga joylarda norma ijodkorligi hamda huquqni qo‘llash amaliyoti bo‘yicha axborot taqdim etishi;

tuman (shahar) adliya bo‘limlari boshliqlari har chorakda tegishlicha tuman (shahar) xalq deputatlari kengashlariga tuman (shahar) darajasidagi davlat organlari va tashkilotlarining norma ijodkorligi hamda huquqni qo‘llash amaliyoti bo‘yicha axborot taqdim etishi belgilandi.

2018-yil 13-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to‘g‘risidagi nizom qabul qilinib:

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimining tashkiliy tuzilmasi;

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi markaziy apparati tuzilmasi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi tuzilmasi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalarining namunaviy tuzilmasi;

tumanlar (shaharlar) adliya bo‘limlarining namunaviy tuzilmasi;

normativ-huquqiy hujjatlarning ijrochilarga yetkazilishi hamda ulardagi norma va qoidalarning aholiga tushuntirilishi sxemasi hamda adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini ta’minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar tasdiqlandi.

2019-yil 9-yanvar	Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi tasdiqlandi hamda Adliya vazirligi huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish sohasida muvofiqlashtiruvchi davlat organi etib belgilandi.
2019-yil 8-fevral	Intellektual mulk agentligi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimiga o‘tkazildi.
2020-yil 19-may	2020 – 2024-yillarda adliya organlari va muassasalarini rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi hamda Ma’muriy tartib-taomillarni takomillashtirish va monitoringini yuritish hamda fuqarolik-huquqiy munosabatlarni rivojlantirish boshqarmalari tashkil etildi.
2020-yil 2-iyun	Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash boshqarmasi tashkil etildi.
2021-yil 11-fevral	Adliya vazirligiga qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning o‘z vaqtida, to‘liq va sifatli amalga oshirilishini o‘rganish vazifasi yuklatildi, vazirlik tizimida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va topshiriqlari ijrosini nazorat qilish boshqarmasi hamda uning hududiy bo‘limlari tuzildi.
2021-yilning 1-oktyabridan	respublikaning barcha tuman (shahar)larida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari huzurida yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari faoliyat boshladi.

















QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI



Ma’lumki, davlat boshqaruvi organlaridan biri bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yagona davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda, shuningdek, milliy qonunchilik tizimi haqida xabardor qilib borishda alohida o‘rin egallaydi. Jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi ham o‘z zimmasiga yuklatilgan yagona davlat huquqiy siyosati sifatini yaxshilash, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan qonunchilik faoliyatini muvofiqlashtirish kabi vazifalarni samarali bajarib kelmoqda. Ayni paytda vazirlik 11 bo‘lim, 17 ta tuman (shahar) adliya bo‘limi, 17 ta yuridik xizmat ko‘rsatish markazi hamda notarial arxivdan iborat.

Vazirlik tomonidan adliya organlari tashkil etilganining 30 yilligi keng nishonlanmoqda. Ushbu sana munosabati bilan vazirlik tizimidagi bir guruh fidoyi xodimlarga “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga 30 yil” esdalik nishoni hamda faxriy yorliqlar topshirildi. Adliya faxriylari hamda xodimlarining oila a’zolari uchun xayriya tadbirlari o‘tkazildi. Shuningdek, adliya organlari va muassasalari xodimlari o‘rtasida sport musobaqalari uyushtirildi va g‘oliblarga esdalik sovg‘alari topshirildi.

ANDIJON VILOYATI ADLIYA BOSHQARMASI



Andijon viloyati adliya boshqarmasi tomonidan ham hududda huquqiy sohani rivojlantirish, shuningdek, milliy qonunchilik tizimi haqida aholini xabardor qilish borasida astoydil mehnat qilishmoqda. Boshqarma 1941-yil 6-martda tashkil etilgan bo‘lib, hozir 11 bo‘lim, 16 ta tuman (shahar) adliya bo‘limi, 16 ta yuridik xizmat ko‘rsatish markazi hamda notarial arxivni qamrab olgan.

Boshqarma tomonidan adliya organlari tashkil etilganining 30 yilligini keng nishonlashga alohida e’tibor qaratildi. Ushbu sana munosabati bilan viloyatdagi bir guruh fidoyi xodimlarga “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga 30 yil” esdalik nishoni hamda faxriy yorliqlar topshirildi. Tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko‘rsatish faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori mazmun-mohiyati va ahamiyatiga alohida e’tibor qaratilib, aholiga yuridik xizmat ko‘rsatishda qulayliklar yaratish hamda odamlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan vazifalar samarali bajarib kelinayotgani qayd etildi.

BUXORO VILOYATI ADLIYA BOSHQARMASI



Buxoro viloyati adliya boshqarmasi ham o‘z zimmasiga yuklatilgan yagona davlat huquqiy siyosati sifatini yaxshilash, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan qonunchilik faoliyatini muvofiqlashtirish kabi vazifalar ijrosiga jiddiy e'tibor qaratgan. 1976-yil 11-fevralda tashkil etilgan adliya bo‘limi 1988-yil 28-iyulda boshqarma maqomiga ega bo‘lgan. Boshqarma 11 bo‘lim, 13 ta tuman (shahar) adliya bo‘limi, 13 ta yuridik xizmat ko‘rsatish markazi hamda notarial arxivdan iborat.

So‘nggi yillarda adliya organlari faoliyati tubdan isloh qilinib, ular zimmasiga qator vazifalar yuklatildi hamda yangi tarkibiy bo‘linmalar tashkil etildi. Maqsad jamiyat taraqqiyotiga erishish, odamlarning og‘irini yengil qilish, dardiga malham bo‘lish, har bir fuqaroning haq-huquqlarini ta’minlash orqali xalqimizning roziligiga erishishdir. Adliya organlarining 30 yilligi munosabati bilan viloyat adliya boshqarmasi hamda tuman (shahar) adliya bo‘limlari xodimlari turli idora va tashkilotlarga tashrif buyurib, adliya organlari tarixi va bugungi kundagi faoliyati yuzasidan suhbatlar o‘tkazishdi. Ushbu sana munosabati bilan bir guruh fidoyi xodimlarga “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga 30 yil” esdalik nishoni hamda faxriy yorliqlar topshirildi. “Adliya: shonli 30 yil” shiori ostida sportning voleybol, stol tennisi, shaxmat hamda shashka turlari bo‘yicha musobaqalar tashkillashtirildi.

JIZZAX VILOYATI ADLIYA BOSHQARMASI



Jizzax viloyati adliya boshqarmasi huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish, inson huquq va erkinliklarini samarali himoya qilish borasida hududda tizimli ishlarni yoʻlga qoʻygan. Boshqarma 1974-yil 1-yanvarda tashkil etilgan boʻlib, hozir 8 boʻlim, 13 ta tuman (shahar) adliya boʻlimi, 13 ta yuridik xizmat koʻrsatish markazi va notarial arxivdan iborat.

E'tiborli jihati viloyat adliya boshqarmasi hamda shahar, tuman adliya boʻlimlari tomonidan Adliya vazirligi tashkil etilganining 30 yilligi munosabati bilan viloyatdagi qator davlat organlari va tashkilotlari xodimlari bilan birgalikda "#Adliya_30_yil" heshtegi ostida chellenj oʻtkazildi. Sana munosabati bilan hududdagi adliya tizimida mehnat qilayotgan soha xodimlari, faxriylari "Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga 30 yil" esdalik nishoni bilan taqdirlandi. Taqdirlash marosimida adliya faxriylari soʻzga chiqib, tizimda faxriylarga berilayotgan e'tibor, turli bayramlar arafasida tabriklash va taqdirlash, moddiy yordam koʻrsatish an'anaga aylanayotganini mamnuniyat bilan e'tirof etishdi.

NAVOIY VILOYATI ADLIYA BOSHQARMASI



Ayni paytda Navoiy viloyati adliya boshqarmasi ham o‘z zimmasiga yuklatilgan yagona davlat huquqiy siyosati sifatini yaxshilash, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan qonunchilik faoliyatini muvofiqlashtirish kabi vazifalar ijrosiga jiddiy e’tibor qaratgan. Boshqarma 1982-yil 30-aprelda tashkil etilgan bo‘lib, hozir 11 bo‘lim, 11 ta tuman (shahar) adliya bo‘limi, 11 ta yuridik xizmat ko‘rsatish markazi hamda notarial arxivdan iborat.

Viloyatda adliya organlarining 30 yillik to‘yi keng nishonlanmoqdi. “Adliya organlari: jamiyat ehtiyoji asosiy omil” mavzusida davra suhbati va vebinarlar, yuridik soha vakillari o‘rtasida ochiq muloqot, “Men yosh huquqshunosman” mavzusida yoshlar huquqiy aksiyasi va ochiq eshiklar kuni tashkil etilib, fleshmob shaklida “Adliya: shonli 30 yil” shiori ommalashtirildi. Tizimda samarali mehnat qilib kelgan ustozlar va yoshlar “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga 30 yil” esdalik nishoni bilan taqdirlandi. Shuningdek, boshqarma tashabbusi bilan “Bir murojaat izidan” loyihasi tashkil etilib, yil davomida adliya organlariga kelib tushgan murojaatlar ijrosi yuzasidan monitoring amalga oshirildi. Muammolari hal etilgan fuqarolarning dil so‘zlari aks etgan roliklar tayyorlandi.

NAMANGAN VILOYATI ADLIYA BOSHQARMASI



Barcha hududlarda bo‘lgani kabi Namangan viloyati adliya boshqarmasi ham yagona davlat huquqiy siyosatini amalga oshirish, shuningdek, milliy qonunchilik tizimi haqida aholini xabardor qilish, sifatli huquqiy xizmat ko‘rsatishda faol. Boshqarma 1941-yil 6-martda tashkil etilgan bo‘lib, hozir 11 bo‘lim, 14 ta tuman (shahar) adliya bo‘limi, 14 ta yuridik xizmat ko‘rsatish markazi hamda notarial arxivdan iborat.

Boshqarma tomonidan Adliya vazirligining 30 yilligini yuqori kayfiyatda nishonlashga alohida tayyorgarlik ishlari olib borilib, “#Shonli 30 yil” shiori ostida turli xil bannerlar, heshteglar tayyorlandi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sudlar, OAV va boshqa hamkor tashkilotlar vakillari ishtirokida “Adliya organlari: jamiyat ehtiyoji asosiy omil” mavzusida viloyatda, tuman, shaharlarda qator davra suhbati, vebinar va turli tadbirlar tashkil qilindi. Adliya faxriylari hamda marhum xodimlarning oilalari holidan xabar olindi, esdalik sovg‘alari taqdim etildi. Adliya organlarida sidqidildan xizmat qilib kelayotgan bir guruh xodimlarga “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga 30 yil” ko‘krak nishonlari topshirildi.

SAMARQAND VILOYATI ADLIYA BOSHQARMASI



Adliya vazirligi yagona davlat huquqiy siyosatini amalga oshirish, aholini milliy qonunchilik tizimi haqida xabardor qilib borishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Jumladan, Samarqand viloyati adliya boshqarmasi ham o‘z zimmasiga yuklatilgan yagona davlat huquqiy siyosati sifatini yaxshilash, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan qonunchilik faoliyatini muvofiqlashtirish kabi vazifalarni samarali bajarib kelmoqda. Boshqarma 1971-yil 15-yanvarda tashkil topgan bo‘lib, hozir 11 bo‘lim, 16 ta tuman (shahar) adliya bo‘limi, 16 ta yuridik xizmat ko‘rsatish markazi hamda notarial arxivni qamrab olgan.

Adliya organlarining 30 yilligi munosabati bilan boshqarmada bayram tadbiri tashkil etildi. Unda adliya organlarida uzoq yillar davomida xizmat qilgan, shuningdek, hozir faoliyat yuritib kelayotgan xodimlar va faxriylarga “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga 30 yil” esdalik nishonlari tantanali topshirildi. Bundan tashqari, hududiy davlat organlari va tashkilotlarida ham davra suhbatlari uyushtirildi, adliya tizimi tarixi, bugungi kundagi faoliyati haqida ma’lumotlar berildi.

SIRDARYO VILOYATI ADLIYA BOSHQARMASI



O‘tgan 30 yil davomida adliya sohasida amalga oshirilgan islohotlar, huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini qurish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, aholiga samarali va sifatli xizmat ko‘rsatishda mamlakatimiz adliya organlarining o‘rni alohida. Bu borada Sirdaryo viloyati adliya boshqarmasi ham samarali faoliyat yuritib kelmoqda. Boshqarma 1971-yil 26-yanvarda tashkil etilgan bo‘lib, 11 bo‘lim, 11 ta tuman (shahar) adliya bo‘limi, 11 ta yuridik xizmat ko‘rsatish markazi hamda notarial arxivdan iborat.

Adliya organlarining 30 yilligi munosabati bilan “Adliya organlari: jamiyat ehtiyoji asosiy omil” mavzusida tadbir tashkil etildi. Unda Adliya vazirligi tarixi, bugungi kundagi faoliyati, ustuvor vazifalar, missiyasi haqida batafsil ma’lumot berildi. Shuningdek, adliya tizimining jamiyat va xalq farovonligidagi o‘rni, xalqaro qonunchilik maydonidagi mavqeyi xususida ham atroflicha mulohazalar bildirildi. Ushbu sana munosabati bilan ko‘p yillik samarali va fidokorona mehnatlari uchun bir guruh fidoyi xodimlarga “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga 30 yil” esdalik nishoni hamda faxriy yorliqlar topshirildi.

SURXONDARYO VILOYATI ADLIYA BOSHQARMASI



Surxondaryo viloyati adliya boshqarmasi fuqarolarga har tomonlama huquqiy va davlat xizmatlarini koʻrsatish, huquqiy yechim topish va ularga huquqiy koʻmak berish borasida amaliy ishlarni tashkil etib kelmoqda. Bu borada huquqni muhofaza qiluvchi hamda tegishli davlat organlari bilan mustahkam hamkorlikni yoʻlga qoʻygan. Boshqarma 1972-yil 27-sentyabrda tashkil etilgan boʻlib, ayni paytda 11 boʻlim, 15 ta tuman (shahar) adliya boʻlimi, 15 ta yuridik xizmat koʻrsatish markazi hamda notarial arxivni qamrab olgan.

Boshqarma tomonidan adliya organlari tashkil etilganining 30 yilligi keng nishonlanmoqda. Xususan, viloyatdagi qator davlat organlari va tashkilotlari xodimlari orasida “Adliya_shonli_30_yil” heshtegi ostida huquqiy targʻibot tadbirlari oʻtkazildi. Shuningdek, boshqarma viloyat yuridik texnikumi oʻquvchilari ishtirokida “ochiq eshiklar” kuni oʻtkazildi. Unda yoshlarning siyosiy-huquqiy savodxonligini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, yoshlarga oid davlat siyosatining ijrosini ta’minlash sohasida qilinayotgan ishlar, shuningdek, adliya tizimi tarixi, ish jarayoni haqida batafsil ma’lumotlar berildi. Bir guruh fidoyi xodimlarga “Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga 30 yil” esdalik nishoni hamda faxriy yorliqlar topshirildi.

TOSHKENT VILOYATI ADLIYA BOSHQARMASI



Yurtimizning barcha hududlarida bo‘lgani kabi Toshkent viloyati adliya boshqarmasi ham inson omili ustuvorligi tamoyilini faoliyatining asosiy yo‘nalishi etib belgilab, demokratik huquqiy davlat barpo etishga o‘zining munosib hassasini qo‘shib kelmoqda. Xususan, fuqarolarga har tomonlama huquqiy va davlat xizmatlarini ko‘rsatish, muammolarga huquqiy yechim topish va huquqiy ko‘mak berish borasida amaliy ishlar tashkil etilmoqda. Boshqarma 1971-yil 4-yanvarda tashkil etilgan bo‘lib, ayni paytda 11 bo‘lim, 22 ta tuman (shahar) adliya bo‘limi, 22 ta yuridik xizmat ko‘rsatish markazi va notarial arxivdan iborat.

Boshqarma tomonidan adliya organlari tashkil etilganining 30 yilligi keng nishonlanmoqda. Ushbu sana munosabati bilan viloyatdagi bir qator tashkilotlarga tashrif buyurgan holda ularga ko‘p yillik hamkorlik uchun minnatdorlik bildirildi hamda adliya tizimining tashkil topishi, tarixi va bugungi kuni haqida ma’lumotlar berildi. Bir guruh fidoyi xodimlarga “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga 30 yil” esdalik nishoni hamda faxriy yorliqlar topshirildi. Shuningdek, adliya organlari va muassasalari xodimlari o‘rtasida sport musobaqalari o‘tkazildi va g‘oliblar esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.

FARG‘ONA VILOYATI ADLIYA BOSHQARMASI



Farg‘ona viloyati adliya boshqarmasi xodimlari yagona davlat huquqiy siyosatini amalga oshirish, shuningdek, aholini milliy qonunchilik tizimi haqida xabardor qilib borishda fidoyilik bilan mehnat qilishmoqda. Buni so‘nggi yillarda viloyat aholisining huquqiy bilimi va madaniyati oshib borayotganida ham ko‘rish mumkin. Muhimi, boshqarma xodimlari o‘z zimmasiga yuklatilgan yagona davlat huquqiy siyosati sifatini yaxshilash, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan qonunchilik faoliyatini muvofiqlashtirish kabi vazifalarni samarali bajarib kelmoqda. Boshqarma 1939-yil 16-iyunda tashkil etilgan bo‘lib, ayni damda 11 bo‘lim, 12 ta tuman (shahar) adliya bo‘limi, 12 ta yuridik xizmat ko‘rsatish markazi hamda notarial arxivdan iborat.

Viloyatda adliya organlari tashkil etilganining 30 yilligi keng nishonlanmoqdi. Ushbu sana munosabati bilan bir guruh fidoyi xodimlarga “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga 30 yil” ko‘krak nishoni hamda faxriy yorliqlar topshirildi. Adliya faxriylari hamda xodimlarining oila a’zolari uchun xayriya tadbirlari o‘tkazildi. Bundan tashqari, “Adliya organlari: jamiyat ehtiyoji asosiy omil” mavzusida tadbir o‘tkazildi. Unda ishtirokchilarga adliya tizimining tashkil topishi, tarixi va bugungi kuni haqida ma’lumot berildi.

XORAZM VILOYATI ADLIYA BOSHQARMASI



Huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini qurish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, aholiga samarali va sifatli xizmat koʻrsatish boʻyicha Xorazm viloyati adliya boshqarmasi ham samarali faoliyat yuritib kelmoqda. Boshqarma 1972-yil 27-sentyabrda tashkil etilgan boʻlib, 11 boʻlim, 13 ta tuman (shahar) adliya boʻlimi, 13 ta yuridik xizmat koʻrsatish markazi hamda notarial arxivdan iborat.

Adliya organlarining 30 yilligi munosabati bilan viloyat yuridik texnikumida “Adliya: shonli 30 yil” mavzusida vebinar boʻlib oʻtdi. Shuningdek, boshqarmada “ochiq eshiklar kuni” tashkil etilib, ishtirokchilarga adliya organlari faoliyati haqida ma’lumotlar berildi, boshqarma tarkibiy boʻlimlari bilan yaqindan tanishtirildi. “Adliya organlari: jamiyat ehtiyoji asosiy omil” mavzusida tadbir ham tashkil etildi. Boshqarmada uzoq yillar davomida samarali faoliyat koʻrsatgan xodimlar va faxriylar “Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga 30 yil” esdalik nishoni hamda mukofotlar bilan taqdirlandi.

QASHQADARYO VILOYATI ADLIYA BOSHQARMASI



Qashqadaryo viloyati adliya boshqarmasida ham huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish, inson huquq va erkinliklarini samarali himoya qilish borasida tizimli ishlar yo‘lga qo‘yilgan. Boshqarma 1970-yil 31-dekabrda tashkil etilgan bo‘lib, hozir 11 bo‘lim, 15 ta tuman (shahar) adliya bo‘limi, 15 ta yuridik xizmat ko‘rsatish markazi hamda notarial arxivni qamrab olgan.

Boshqarma tomonidan Adliya vazirligi tashkil etilganining 30 yilligi munosabati bilan bayram tadbiri o‘tkazildi. Unda adliya organlari tizimida ko‘p yillar faoliyat yuritgan, sohaning rivojlanishiga o‘z hissalarini qo‘shgan fidoyi, jonkuyar faxriylar, ustozlar va bugungi kunda faoliyat yuritib kelayotgan xodimlari hamda mehmonlar ishtirok etishdi. Unda ko‘p yillik fidokorona va samarali mehnatlari uchun bir guruh xodimlar va faxriylarga “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga 30 yil” esdalik nishonlari tantanali ravishda topshirildi. Bundan tashqari, “Adliya organlari: jamiyat ehtiyoji asosiy omil” mavzusida tadbir o‘tkazildi. Unda ishtirokchilarga adliya tizimining tashkil topishi, tarixi va bugungi kuni haqida ma’lumotlar berildi.

TOSHKENT SHAHAR ADLIYA BOSHQARMASI



Barcha hududlarda bo‘lgani kabi Toshkent shahar adliya boshqarmasi ham yagona davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda, shuningdek, aholini milliy qonunchilik tizimidan xabardor qilib borishda jonbozlik ko‘rsatib kelmoqda. Boshqarma 1972-yil 27-sentyabrda tashkil etilgan bo‘lib, 11 bo‘lim, 12 ta tuman (shahar) adliya bo‘limi, 12 ta yuridik xizmat ko‘rsatish markazi hamda notarial arxivdan iborat.

Boshqarma tomonidan birgina o‘tgan yil davomida 19 mingdan ziyod huquqiy targ‘ibot tadbiri o‘tkazildi. 2021-yilning 28-avgustida “Adliyadan adliyagacha” huquqiy marshi o‘tkazildi. Tadbir Yunusobod tuman adliya bo‘limidan boshlanib, Shayx Shibliy va Minor mahallalarida hamda “Oloy” bozori hududida sayyor qabullar tashkil qilindi. E’tiborli jihati boshqarma tomonidan adliya organlari tashkil etilganining 30 yilligi keng nishonlanmoqda. Ushbu sana munosabati bilan bir guruh fidoyi xodimlar “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga 30 yil” esdalik nishoni hamda faxriy yorliqlar bilan mukofotlandi. Adliya faxriylari hamda xodimlarining oila a’zolari uchun xayriya tadbirlari o‘tkazildi. Shuningdek, adliya organlari va muassasalari xodimlari o‘rtasida sport musobaqalari o‘tkazildi va g‘oliblarga esdalik sovg‘alari topshirildi.